



DAVLAT TILI — MILLAT MA'NAVIYATI HAMDA JAMIYAT KO'ZGUSI

Shoolimxonova Mohigul Asrorxonovna

Samarqand viloyati Samarqand shahar 4-maktab o'zbek tili fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlat tilining jamiyat hayotidagi o'rni, uning milliy o'zlikni shakllantirishdagi ahamiyati hamda davlat boshqaruvi va ta'lim tizimidagi vazifalari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida o'zbek tilining davlat tili sifatidagi huquqiy maqomi, uni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar va globallashuv sharoitida davlat tilini asrash masalalari tahlil qilingan. Maqolada davlat tilini rivojlantirish va qo'llash samaradorligini oshirish bo'yicha muhim yo'nalishlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: davlat tili, o'zbek tili, milliy o'zlik, til siyosati, Konstitutsiya, ma'naviyat, ta'lim tizimi, nutq madaniyati, globallashuv, til taraqqiyoti

KIRISH

Davlat tili millat ma'naviyatining asosi, o'zagi va ko'zgusidir, u millatning o'zligini, madaniyatini, tarixini saqlaydi, taraqqiyotini belgilaydi, birlashtiradi va tarbiyalaydi; tilni asrash, rivojlantirish millatning yuksalishi, uning xalqaro obro'sini oshirish esa kelajak uchun muhim vazifa, chunki tilsiz millat to'liq xalq bo'la olmaydi.

Tilning ma'naviyatdagi o'rni:

- **O'zlikni anglash:** Til orqali millatning urf-odatlar, qadriyatlari va o'tmishi saqlanadi.
- **Madaniyatning asosi:** Dostonlar, allalar, maqomlar til orqali avloddan-avlodga o'tadi, milliy g'ururni shakllantiradi.



- **Birlashtiruvchi kuch:** Til xalqni birlashtiradi, umumiy g'oyalar atrofida jipslashtiradi.

- **Tarbiya vositasi:** Yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda til muhim rol o'ynaydi.

O'zbek tilining ahamiyati:

- "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi Qonun o'zbek tiliga davlat tili maqomini berib, uning nufuzini oshirdi.

- Prezident ta'kidlaganidek, ona tilining go'zalligini his qilish uchun uning dostonlarini, qo'shiqlarini eshitish kerak, bu esa tilning madaniyat bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Vazifa va burch:

- Ona tilimizni xalqaro miqyosda rivojlantirish, uni taraqqiy etgan tillar qatoriga qo'shish har bir fuqaroning burchidir.

- Tilimizga e'tibor qaratish orqali millatimizning kelajagini ta'minlaymiz.

Har bir mustaqil davlatning o'z ramzlari bo'lgani kabi, uning davlat tili ham milliy davlatchilikning muhim belgilaridan biridir. Davlat tili xalqning tarixiy xotirasi, milliy o'zligi, ma'naviyati va madaniyatini o'zida mujassam etadi. O'zbek tilining davlat tili sifatida e'tirof etilishi xalqimizning asriy orzusi bo'lib, milliy taraqqiyot yo'lida muhim qadam hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, o'zbek tili — davlat tili hisoblanadi. 1989-yil 21-oktabrda "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi o'zbek tilining huquqiy maqomini mustahkamladi. Ushbu sana bugungi kunda O'zbek tili bayrami kuni sifatida keng nishonlanadi.

Davlat tilining jamiyat hayotidagi o'rni beqiyosdir. U davlat boshqaruvi, ta'lim, ilm-fan, huquqiy munosabatlar, ommaviy axborot vositalari va barcha rasmiy



hujjatlarda qo‘llaniladi. Bu esa tilning nafaqat muloqot vositasi, balki jamiyatni birlashtiruvchi kuch ekanini ko‘rsatadi.

Bugungi globallashuv sharoitida davlat tiliga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaymoqda. Chet tillarini o‘rganish muhim bo‘lsa-da, ona tilini bilish, unga hurmat bilan qarash har bir fuqaroning burchidir. Ayniqsa, yosh avlodga davlat tilini mukammal o‘rgatish, uning boyligini anglatish va to‘g‘ri nutq madaniyatini shakllantirish ta‘lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir.

Davlat tilini rivojlantirish yo‘nalishlari:

ta‘lim muassasalarida davlat tilini o‘qitish sifatini oshirish;
rasmiy ish yuritish va hujjatlarni davlat tilida yuritishni to‘liq ta‘minlash;
ilmiy va texnik terminologiyani o‘zbek tilida rivojlantirish;
ommaviy axborot vositalarida adabiy til me‘yorlariga rioya etish;
raqamli platformalarda o‘zbek tilining qo‘llanilishini kengaytirish.

Davlat tili — millatning ruhi, uning o‘tmishi va kelajagini bog‘lovchi muqaddas qadriyatdir. O‘zbek tilini asrab-avaylash, rivojlantirish va kelajak avlodga sof holda yetkazish har birimizning muqaddas burchimizdir. Davlat tiliga bo‘lgan hurmat — Vatanga bo‘lgan hurmatdir.

Til- millatning ma‘naviy boyligidir. Til nafaqat muomila vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, turmush-tarzi, tarixidir. Turli xalqlarning tiliga hurmat esa o‘z navbatida o‘zaro tushunishni, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Barcha tillarni birday tan olish va hurmat qilish tinchlikning birdan-bir kafolatidir.

Til-millat qiyofasining bir bo‘lagi. Dunyodagi barcha xalqlar o‘zining milliy rasmiy tiliga ega deb aytolmaymiz. Chunki bu xalqlarning milliy mustaqilligi bilan bog‘liq.

Mutaxassislarning so‘zlariga qaraganda, bugungi kunda har ikki haftada bitta til yo‘qolib bormoqda. Bu o‘z navbatida o‘sha tilde so‘zlashuvchi xalqlarning yo‘qolishini anglatadi. YUNESKO vakillarining so‘zlariga qaraganda,



qachonlardir odamlar so'zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo'lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud bo'lib, ularning 90% yo'qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan sivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Bu tilde so'zlashuvchi aholining ayrimlari yozuvga ega bo'lsa, ayrimlari bunda bebahradir. Masalan Afrika tilida so'zlashuvchi aholining 80% o'z yozuvlariga ega emas. Minglab tillardan ta'lim tizimida foydalanishning imkoniyati yo'q. Chunki yangi texnologiyalarning rivojlanishi tufayli ayrim xalqlarning o'z tilidan ko'ra zamonaviy tillardan foydalanishga majbur bolmoqda. Masalan bugungi kunda internet tilining 81% ingliz tiliga to'g'ri keladi. To'g'ri avvallari ham tillar paydo bo'lgan, muomilada bo'lib, malum vaqtdan so'ng yo'q bo'ib ketgan. Lekin hozirgidek tillarning jadallik bilan yo'qolishi tarixda kuzatilmagan. Tilshunoslar yo'qolib ketish arafasida turgan tillarni saqlab qolishning imkoniyatlari hozircha qo'ldan boy berilmaganini aytishadi. Tillarni saqlab qolish uchun esa, BMT ekspertlarining fikricha, bu tillardan ta'lim tizimida keng foydalanishni yo'lga qo'yish kerak. Lingvistik olimlarning fikricha yana 25 yildan so'ng, hozir muomilada bo'lgan tillarning o'ntasidan bittasi saqlanib qolar ekan.

Til jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanadi, ijtimoiy o'zgarishlar natijasida tilning grammmatik qurilishi takomillasha boradi. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'langan. Kishilik tarixida shu narsa malumki, avval urug' tili, keyin qabila tili, ellat , xalq , millat tili shakllangan. Shevalarda tillarning muayyan taraqqiyot bosqichlariga xos urug' , qabila , elat tili xususiyatlari o'z izini qoldirgan.

Insoniyat bilan birga paydo bo'lga til uning hayotida eng muhim rol o'ynab kelgan va bundan keyin ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Til eng avvalo , inson va uning tafakkuri shakllanishidagi zaruriy shartlardan biridir. Aniq nutqning paydo bo'lishi insonning bilish , idrok qilish jarayonlarini tamoman o'zgartirib yuboradi.



Til tufayli inson tafakkuri boyidi, moddiy dunyodagi narsa va predmedlarni ong orqali idrok qilish, ularning ustidan mulohaza yuritish, obyektiv borliqqa oid fikrlarni soʻz bilan ifodalash imkoniga ega boʻldi. Til ilk davrlardan boshlab hech bir narsa bilan tenglashtirib boʻlmaydigan vazifani, yaʼni inson tafakkurini shakllantirish funksiyasini bajarib keldi.

Bundan 30 yil muqaddam oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. Bu oʻz davrida tom maʼnoda olamshumul voqea boʻlgan edi. Chunki Beruniy, Ibn Sino, Al Fargʻoniy, Al Xorazmiy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Bobur Mirzo kabi buyuk siymolarni yetishtirgan xalq tili yoʻqolish arafasida kelib qolgan edi. Mustaqilikka ilk qadamlar tashlanayotgan davrdayoq oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berish masalasi kun tartibiga qoʻyilib, bu ish amalga oshirilgan edi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadiga boʻlsam, tilni sevisish, uni ardoqlash, millatni sevisish va qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi millatning turmush tarzi, urfodatlar, madaniyati uning tilida oʻz ifodasini topadi. Til- millat koʻzgusi, deb bejiz aytilmagan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, koʻhna va serqirra madaniyati oʻzbek tili taʼsirida shakllangan. Ulugʻ shoirimiz Alisher Navoiy shu tilde bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan. Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi, yoshlarimiz yutuqlari, sportchilarimiz gʻalabalari sharafiga oʻzbek tilida madhiyamiz kuylanayotir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. "Tilshunoslik nazariyasi" Z. Xolmonova Toshkent 2020
2. "Tilshunoslik nazariyasi" N. Uluqov Toshkent 2016
3. Internet malumotlari
4. Ziyo.net